ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA SHAXSIY TANLOV VA UNING OQIBATLARI

Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail: Dxudoyberdiyeva699@gmail.com
+99888-277-38-98

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdam ijodi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi, xususan, adibning “Muvozanat” romani va undagi qahramonlarning hayot yo‘lida qilgan tanlovlari badiiy jihatdan tahlil qilinib, ushbu qarorlar ularning taqdiri, ruhiy kechinmalari hamda jamiyat bilan munosabatlariga qanday ta’sir ko‘rsatgani ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *roman, muvozanat, Yusuf, ehtiyoj, shaxsiy tanlov, ichki ziddiyat, qaror, oqibat.*

Аннотация. *В данной статье кратко рассматривается творчество Улугбека Хамдама. В частности, проводится художественный анализ романа «Мувозанат» и жизненного выбора его героев. Также раскрывается, каким образом принятые ими решения повлияли на их судьбы, внутренние переживания и взаимоотношения с обществом.*

Ключевье слова. *Роман, равновесие, Юсуф, потребность, личный выбор, внутренний конфликт, решение, результат.*

Annotation. *This article provides a brief overview of the literary works of Ulugbek Hamdam. In particular, it offers a literary analysis of the novel Muvozanat and the life choices made by its characters. It also examines how these decisions influenced their destinies, inner experiences, and relationships with society.*

Keywords. *Novel, balance, Yusuf, need, personal choice, internal conflict, decision, outcome.*

XX asr o‘zbek adabiy muhitida Ulug‘bek Hamdam ijodi alohida o‘rin egallaydi. Mahoratli yozuvchi o‘zining chuqur ma’noli asarlari bilan kitobxonlar qalbidan munosib joy egallagan. Uning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Ota” kabi romanlari, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul”, “Seni kutdim” kabi she’riy to‘plamlari adabiyotimizning qimmatli asarlari sirasiga kirgan. Uning ko‘plab asarlarini xalqimiz va chet el kitobsevarlari sevib mutolaa qiladilar. Xususan, “Isyon va itoat” romani, “Yolg‘izlik” qissasi, bir qancha she’r va hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan. Adibning “Muvozanat” romani hamda “Tosh” hikoyasi Amerikada alohida e’tirof etilgan.

“Muvozanat” romani mashhur olima Richal Narrid va uning hamkasblarini ham o‘ziga jalb qila olgan. Ma’lum bo‘lishicha, asar “Markaziy Osiyoni o‘rganish bo‘limi”ning ko‘plab professor-o‘qituvchilari, amerikalik o‘zbeklar tomonidan katta qiziqish bilan o‘qilgan va

kafedrada unga bag‘ishlangan keng ko‘lamli seminarlar tashkil etilgan. Tadqiqotchi romanning boshqa asarlardan farqi va qiymatini uch muhim omil bilan izohlaydi: “Zamonaviy tilshunoslik oqimida yozilgan bu asardagi o‘ziga xos birinchi faktor asar qahramonlarining xarakterlariga xos muomala uslubi; ikkinchisi, millat sifatida o‘z- o‘zini anglash yo‘lining milliy xarakter mushtarakligida aks ettirilishi, uchinchisi, kitobxonning ko‘ngil ehtiyoji sifatida yetilgan mavzuning jasorat bilan aks ettirilishi natijasida nafaqat kichik, balki katta doiradagi (xorijlik) muhlislarga ega bo‘lganligi”. [17]

Haqiqatan, asar kitobxonning zarurati o‘laroq maydonga kelgan. Asar orqali ilk mustaqillik yillaridagi mamlakatimiz aholisi holati jasorat bilan, real holda tasvirlanib, insonlar qo‘liga ko‘zgu tutqazilgan. Filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek: ““Muvozanat” o‘zbek nasrining realizm imkoniyatlaridan kengroq foydalanish yo‘lidagi dadil va muvaffaqiyatli qadamlardan biri o‘laroq dunyoga kelgandir”. [18]

Asar shaxs ruhiyatidagi konfliktlar, inson ongi va qalbidagi hadsiz so‘roqlar haqida hikoya qiladi. Jumladan, bosh qahramon Yusuf va uning atrofidagi odamlar tasviri orqali o‘zbek xalqining “o‘tish davri”dagi ruhiy va ijtimoiy holati yoritiladi. Barchani birday “elakdan o‘tkazadigan” bunday davrda hamma kabi bizning qahramonimiz ham ancha vaqt muvozanatni saqlay olmasligi va bu sababli turli murakkab tanlovlar orasida qolishi, uning qaror qabul qilish jarayonlari va tanlovlarining sabab-oqibatlari asarning asosiy mavzusi hisoblanadi.

Eng avval vaziyat Yusufning arosatga tushib qolishi va vaziyatga to‘liq baho berolmasligi bilan boshlanadi va borgan sari chigallashib boradi. Asarda Yusufning ushbu holati quyidagicha tasvirlanadi:“Ajabo, zamon, odamlar qanchalik o‘zgarib boryapti. Hamma go‘yo ko‘zi ojiz kimsa: tutganini qo‘ymaydi. O‘zim-chi o‘zim? Holim ularnikidan battar bo‘lsa, battarki, aslo beh emas. Axir, hamon arosatdaman-ku men! Bozorga kirib adashib qolgan bolaga o‘xshayman: na zarur narsani xarid qilishimni bilaman, na uyimning qayerda ekanligini…”[19]

Shundan so‘ng vaziyat yana-da yomonlashsa yomonlashadiki, ammo qayta tiklanmaydi: Yusuf ayoli bilan qattiq ziddiyatlarga boradi, do‘stlari bilan munosabatlarini tiklayman degan sari aloqalar yana ham yomonlashadi, xiyonat ko‘chasiga kiradi – bularning hammasi moddiyat va ma’naviy olam orasida muvozanatni topa olmaslikdan kelib chiqadi. Asarda birgina Yusuf emas, deyarli hamma qahramonlar tarozi pallalarini teng ushlab tura olmay qiynalishadi. Amir, Said, Mirazim, Zahro shunday qahramonlar sirasiga kiradi.

[17] “O‘zbek adibi va adabiyotshunosi Ulug‘bek Hamdam ijodiga chizgilar”. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-adibi-va-adabiyotshunosi-ulugbek-hamdam-ijodiga-chizgilar.html
[18] D. Quronov ““Muvozanat”- o‘tmish davri ko‘zgusi” (so‘zboshi) “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025.
[19] U. Hamdam. “Muvozanat” / ijtimoiy-maishiy roman / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025. 66-bet

Amir din va dunyo o‘rtasida muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, Said va Mirazim pul va hokimiyat deya insoniylik tuyg‘ularidan butunlay yiroqlashgan, Zahro qondirilmagan ma’naviy ehtiyojlar tufayli noto‘g‘ri yo‘llarga kirgan, hammasining ham ichki olamlari muvozanatsizlik tufayli darz ketgan edi.

Yusuf har tomonlama boshi berk ko‘chaga kirib qolgandan so‘ng chorasizlik uni eski do‘stlari yoniga chorlaydi, ammo o‘sha paytda u o‘zi va do‘stlari orasida ko‘rinmas, ammo o‘ta baland bir devor borligini sezadi, o‘zining g‘arib ahvoli va do‘stlarining to‘qchilikda (g‘oyat badavlat) yashayotganini ko‘rib talmovsirab qoladi:“…lekin xayolini boshqa narsa ko‘proq band etgan edi: bazm uchun Mirazim sarflayotgan pulga, ajab emaski, shaharning chetroq joyidan ikki xonali uy sotib olish mumkin bo‘lar… Ha, Yusuf xarajatni uyga qiyos qildi, uyga…” [20]

Yusuf o‘g‘lining vafotidan keyin hamma narsadan voz kechadi, u ishongan tuyg‘ularga putur yetadi, butun umrlik orzusiga endi intilmay qo‘yadi, butun fikr-u yodi yashab qolish, tirikchilik qilish bo‘lib qoladi:“Yusuf yuragining qa’riga allaqanday tosh cho‘kib yotgandek sezardi o‘zini. Hatto uning ismini ham taxminan bilardi. Bu- alamzadalik toshi edi. Endi uning botinida ilm qilish, tarixning qorong‘i yoxud buzib talqin qilingan sahifalarini qayta yozishda qatnashish va shu yo‘sin o‘zi-yu vatandoshlari yukini yengillatishga qaratilgan, o‘n yillar mobanida shakllanib pishgan maqsadi emas, balki allaqanday parishonlik hukm surardi. Yusuf o‘shaning tabiatiga quloq tutdi…”[21]

Yuqoridagi tasvir orqali Yusufning ko‘ziga ortiq hech narsa ko‘rinmayotganini bilib olamiz, bundan tashqari, romandagi yana bir syujet orqali yozuvchi qahramonimizning ushbu holatini yana-da yaqqol yoritib bergan: Yusuf firmada sotuvchilik qilayotgan mahali universitetdagi hamkasbi yoniga kelganda bu alamzadalikning achchiq zahrini rasman his qiladi. Atrofida bo‘lib o‘tayotgan voqealarni tahlil qilarkan, ma’naviyat oddiy ammo kuchli bir ko‘ngil ehtiyoji, inson yashab qolishi uchun moddiyat avval kelishi kerak, ma’naviyat esa moddiy tomonni to‘ldirib turuvchi vositadir, deya xulosa chiqaradi.

Yusufning bunday qarorlarga kelishi, o‘zining butun umrlik orzulari va sevimli ishini, umidlarini shunchaki tark etishi oson bo‘lmadi, albatta, buning uchun u o‘z vijdoni oldida, xayollari oldida ko‘plab murakkab savol-javoblar ostida qoldi. Ichida ba’zan-ba’zan o‘tli isyonlar ko‘tarilar, uning o‘rni bu yerda emasligini, unga aslida kim ekanligini xotirlatishga urinardi: “…men sotuvchi yoki ombor mudiri bo‘lish uchun dunyoga kelganmidim, shuning uchun o‘qiganmidim? Orzu-umidlarim, bolalikda o‘z oldimga qo‘ygan murod- u maqsadlarim qani, qayoqqa ketdi ular? Nega men o‘z kasbimga, botinimdagi “men”imga

[20] U. Hamdam. “Muvozanat” / ijtimoiy-maishiy roman / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025. 109-bet.
[21] U. Hamdam. “Muvozanat” / ijtimoiy-maishiy roman / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025. 203-bet.

xiyonat qila boshladim? Borib-borib yorimga, hali tug‘ilmagan farzandlarimga, ota-onam-u jonajon Vatanimga ham vafo qilmaslikni o‘rganamanmi?..” [22]

Inson eng og‘riqli tergovlarni doimo o‘z-o‘zi bilan o‘tkazadi, bizning qahramonimiz ham bir qancha qarorlaridan keyin doimiy ravishda o‘z-o‘zi bilan kurashib keldi. Yuqoridagi savollarga javob berish qiyin edi, ayniqsa, Yusufday vijdonli, ma’naviyati yuksak bo‘lgan bir odam uchun bu savollar yuzni yerga qaratar darajada uyatli edi.

Barcha savollarga javob topgach, o‘zini moddiy jihatdan ancha tiklab olgach, yangi o‘quv yilidan boshlab Yusuf yana universitetga qaytadi, aslida kim ekanligini anglaydi, bizningcha. Yusuf kimligini hech ham unutmagan, shunchaki yashash uchun kurash uni ba’zi o‘zi uchun nomunosib ko‘chalarga kirishga majburlagan edi. Bu holatini va butun dunyoda bo‘lib o‘tayotgan voqealarni, umuman, moziy va kelajak haqidagi bor fikrlarini, tuyg‘ularini u ilk ma’ruzasida so‘zlaydi.

Nima bo‘lganda ham, Yusuf voqealar yakunida to‘g‘ri xulosalar chiqara oldi, odil qaror qila oldi, o‘zini, zohiri va botinini muvozanatsizlik botqog‘idan qutqara oldi.

Ulug‘bek Hamdamning asarlari chuqur falsafa, cheksiz hissiyot, iztirob, quvonch va alam bilan boyitilgan noyob durdonalardir. “Muvozanat”ni esa ushbu durdonalarning gultoji deya olamiz. Asarni o‘qirkanmiz qahramonlar bilan birga yashaymiz, ularning qilgan xatolaridan saboq olamiz, ba’zi uslublarini o‘zimiz uchun aynan nizom qilib olsak, ba’zi xususiyatlarini o‘zimiz va atrofimizdan yiroqlashtirishga urinamiz.

Qisqasini aytganda, “Muvozanat” o‘z nomidan kelib chiqqan holda bizga har narsada muvozanat saqlashni o‘rgatayotganday tuyuladi. Hayotni faqatgina birtomonlama davom ettirib bo‘lmasligi, qushning ikki qanoti bo‘lganidek inson ham bir xislatining ikkinchi tarafini ham teng holda tutishi kerakligini xotirlatadi. Eng asosiysi – mustaqillikning ilk bosqichlarida davlatimiz tutgan siyosiy yo‘l, iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tgan respublikamiz, xalqimiz va ularning sabr-bardoshi haqida hikoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbek adibi va adabiyotshunosi Ulug‘bek Hamdam ijodiga chizgilar”. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-adibi-va-adabiyotshunosi-ulugbek-hamdam-ijodiga-chizgilar.html

2. D. Quronov ““Muvozanat”- o‘tmish davri ko‘zgusi” (so‘zboshi) “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025.

3. U. Hamdam. “Muvozanat” / ijtimoiy-maishiy roman / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025. 336B

4. Samatova Sh. Ulug‘bek Hamdam ijodida davr ruhiyati va talqin mahorati. Academic Research in Educational Sciences. 178-183B

[22] U. Hamdam. “Muvozanat” / ijtimoiy-maishiy roman / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi- T.: “Oltin qalam”, 2025. 285-bet

5. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent- “O‘zbekiston”-2002.
6. www.ziyouz.com